



XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA TAHLILI

Sobirova Dilnavoz Ravshanbek qizi

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti magistranti

E-mail: sobirovadilnavoz1995@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Xorazm viloyatida turizm sohasining hozirgi holati, uning statistikasi va tahlili shuningdek, mintaqada turizm faoliyatini rivojlantirishning istiqbollari haqida fikr-mulohaz yurtildi.

Kalit so`zlar: Madaniy meros yodgorliklari, tur firmalar, UNSECO, statistika, Qal‘ajik qal‘asi, Ulli hovli obidasi, Bog`ishamol yozgi bog`i, Chodira bog`lari, Eshonravot ko`llari

Аннотация: В данной статье рассмотрено современное состояние туристической отрасли Хорезмской области, ее статистика и анализ, а также перспективы развития туризма в регионе.

Ключевые слова: Памятники культурного наследия, туристические компании, ЮНЕСКО, статистика, замок Каладжик, памятник двору Улли, летний парк Богишамаль, Палаточные сады, озера Эшонравот.

Annotation: This article explores the current state of the tourism industry in Khorezm region, its statistics and analysis, as well as the prospects for the development of tourism in the region.

Key words: Monuments of cultural heritage, tour companies, UNSECO, statistics, Kalajik castle, Ulli yard monument, Bogishamal summer park, Chodra havli, Eshonravot lakes

Kirish: Hozirgi zamonda globallashuv jarayoni, xalqaro axborotlar, aloqa, transport-logistika va raqamli iqtisodiyot tizimining takomillashuvi turizm sohasini barqaror rivojlantirib, dunyoning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirdi, xalqaro miqyosda nufuzini oshirdi. Xususan, qisqa davr ichida xalqaro miqyosda turistlar sonini 3,8 martaga, ulardan tushadigan valyuta tushumining 11 martaga oshganligi fikrimizning dalilidir. Turizm xalqaro xizmatlar bozori tarkibidagi muhim tarmoqlardan biri bo‘lib, buning natijasida XXI asrning boshida (bir qator tabiiy ofatlar, global inqiroz va siyosiy mojarolarning keskinlashuviga qaramay) iqtisodiy samaradorlik bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinni egallagan bo‘lib neft ishlab chiqarish va avtomobilsozlik kabi muhim tarmoqlarni ortda qoldirgan. Biroq, turizm nafaqat



iqtisodiy rivojlanishning kuchli vositasi, shuningdek, u muayyan hudud qiyofasini yaratish, kelajak yutuqlari va tarixini targ‘ib etishda ham samarali omil bo‘lib xizmat qiladi. Turizm mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga eng katta ta’sir ko‘rsatadi. Turli davlatning turistik va rekreatsion salohiyati juda murakkab tushuncha bo‘lib, bir ma’noda talqin qilish va baholash qiyin. Bu ko‘p jihatdan turistik salohiyatning asosini, har bir alohida davlatning kelib chiqishi va mohiyatiga ko‘ra har xil bo‘lgan madaniy, tabiiy va tarixiy meros obyektlari tashkil etishiga bog‘liq. Shu bilan birga, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ijtimoiy va psixologik xususiyatga ega bo‘lgan bir qancha tashqi omillar turistik yo‘nalishning jozibadorlik darajasining yakuniy ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi vaqtida dunyoda turizmning roli doimiy ravishda o‘sib bormoqda, bu turizmning odamlar hayotidagi roliga, shuningdek, butun mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’siri kuchayishi bilan bog‘liq. Turizmdagi xizmatlarning aksariyati eng kam yo‘qotishlar bilan amalga oshiriladi, turizm jahon iqtisodiyotiga tobora ko‘proq ta’sir qilmoqda bularning barchasi turizmning o‘ziga xos belgisidir. Faoliyatning turizm sektori qo‘shilgan qiymatning eng yuqori ko‘rsatkichiga erishishga imkon beradi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida sayyoqlik kompaniyalari yangi xizmatlar va mahsulotlarni ishlab chiqish muhimligi va zarurligini tobora ko‘proq anglab yetmoqda.

Bugungi kunda Xorazm viloyatida turizm sohasi jadal va barqaror rivojlanayotgan tarmoqqa aylandi va uning faoliyat yo`nalishlari keng taraqqiy qilib bormoqda. Tarixan Xorazm viloyati hududi Buyuk ipak yo`lining markazida joylashgan bo`lib, O`zbekistonning eng yuqori sayyoqlik salohiyatiga ega mintaqalaridan biri hisoblanadi. Jahon hamjamiyati tomonidan Xiva shahrining ochiq muzey-shahar sifatida e‘tirof etilishi hamda UNESCO butunjahon merosi ro`yxatiga kiritilishi, nafaqat Xorazm viloyati, balki O`zbekistonning jahon turizm bozoriga dadil kirib borishi uchun mustahkam zamin yaratdi.


Bugungi kunda Xorazm mintaqasida 255 ta madaniy meros yodgorliklari mavjud bo`lib, ulardan 18 tasi arxeologiya, 132 tasi me’morchilik, 67 tasi haykaltaroshlik yodgorliklari, 6 tasi diqqatga sazovor joylar va 32 tasi muqaddas qadamjolardir. Bu noyob turistik resurslar, asosan, Xiva va Urganch shaharlarida joylashgan bo`lib, bunday yodgorliklar viloyatning boshqa tuman va shaharlarida ham ko`plab uchraydi.


Qo’llanilgan materiallar va uslublar. Maqolada statistik, qiyosiy, internet materiallari va mavjud loyihalarni tahlil qilish, kuzatish, qiyosiy tahlil qilish va umumlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.



Tahlil va natijalar: Xorazm viloyatda ko`plab tarixiy-me`moriy obidalarning mavjudligiga qaramasdan, hanuzgacha ular to`g`risidagi axborotni o`z ichiga olgan ma`lumotnoma tuzilmagan. Qal`ajik qal`asi, Ulli hovli obidası, Bog`ishamol yozgi bog`i, Chodira bog`lari va Eshonravot ko`llari bo`ylab yangi turistik yo`nalishlar ochish mumkin. Xorazm viloyati sayyoohlik salohiyatini targ`ib qilish borasida ko`proq chet el tajribasini o`rganish, reklama va marketing ishlarini yangi asoslarda tashkil qilish, tarixiy obidalarga tegishli o`ziga xos afsonalarni yozib olish va tarqatish hamda yangi turistik yo`nalishlarni tashkil etish kerak bo`ladi. Turizm sohasining hozirgi holati tahlili viloyatga keluvchi sayyoohlar sonining yildan-yilga o`sib borayotganligini ko`rsatmoqda.

Xorazm viloyatida turizm rivojlanishiga to`sqinlik qilayotgan sabablar sifatida vohaning asosiy turistik markazlardan uzoqda joylashganligi, targ`ibot ishlarining talab darajasida emasligi, viloyatda turizm xizmatlari sifatining jahon andozalariga javob bermasligi, qo`shimcha xizmatlar (transport, bank, sanitariya-epidemiologik va sug`urta xizmatlari) rivojlanish darajasi pastligini ko`rsatish mumkin. Natijada, vohada mavjud sayyoohlik salohiyatining atigi 10-15 foizidan foydalanilmoqda. Shu o`rinda viloyatda turizmnning rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillarni alohida tahlil qilish kerak. Mintaqada sayyoohlik tashkilotlari soni 2012-yilda 36 tani tashkil etgan bo`lsa , 2016-yilda 5 ta, 2017-2018-yillarda 8 ta, 2019-yilda 11 ta va 2020-yilda 5 ta turistik firma va tashkilotlar qolgan. 2016-yilda mehmonxonalar soni 52 tani tashkil etgan bo`lsa 2020-yilda 82 ta, 2022-yilda 78 tani tashkil etib 4 ta mehmonxona o`z faoliyatni tugatgan. Bugungi kunda chet el investitsiyasini jalb qilgan holda tashkil etilgan 5 ta mehmonxona faoliyat ko`rsatmoqda. Ular qatoriga -Keyvak, Xiva malikasi, Xorazm malikasi, Arqonchi, Xayot INN mehmonxonalarini kiritish mumkin. Quyidagi diagramma orqali mintaqada mehmonxona faoliyati bilan bog`liq statistik ma`lumotni ko`rishingiz mumkin.





Xulosa va takliflar. Xorazm viloyatida turizm hamda turistik xizmatlarning tobora rivojlanib borishi natijasida so`nggi yillarda uning noan'anaviy turlari - ekoturizm, agroturizm, arxeologik, etnografik, diniy turizm, ekstremal sharoitlar turizmi va boshqalar shakllana boshladiki, bugungi kunda mazkur yo`nalishlar mutaxassislar tomonidan tez taraqqiy qilayotgan sohalar sifatida baholanmoqda. Ayniqsa, bugun ko`pchilikning diqqat-e'tiborida bo'layotgan va turizmning eng istiqbolli turlaridan biri ekoturizm jadal rivojlanmoqda. Sohani rivojlantirish uchun albatta xalqaro tajribada yutuqlaridan keng ko`lamli foydalanish muhimdir. Mintaqada turizm sanoatini istiqbolli rivojlantirish uchun quyidagi muammolarga oqilona yechim topish ushbu sohani rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bular:

- turistik rasmiyatçilikni tartibga solish va turistlar xavfsizligini oshirish;
- turizm infratuzilmasi, shu jumladan transport va kommunikatsiyalarni rivojlantirish;
- turistik tashkilotlar rahbarlari va xizmatchilarini malakasini oshirish uchun sharoitlar yaratish;
- turistik ob`ektlar va safar manzillarida ekologik normalarga rioya qilishni ta`minlash;
- turistlar huquqlarini himoya qilish;
- turistik firmalar uchun imtiyozli soliq tizimini ta`minlash;
- turizmda qabul kilingan xalqaro mezonlar va normalar asosida ob`ektiv



•statistika hisoboti va nazoratini amalga oshirish imkoniyatini beradigan iqtisodiy

- va statistik mexanizmlardan foydalanish;
- turizm uchun foydali bo`lgan mamlakat timsolini shakllantirish yo`li bilan
- milliy tur mahsulotlarni chet-el bozorlariga olib kirish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tuxliyev I.S., Xayitboyev R., Tursunova G.R. Turizm asoslari. O`quv-uslubiy majmua. - Samarqand, SamISI, 2013 yil. - 372 b.
2. Qudratov G._H., Pardayev M.Q., Ataboyev R. O`zbekistonda turizm salohiyati va uni rivojlantirishda davlat siyosatining asosiyo yo`nalishlari. // Xizmat ko_rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. -T.: Iqtisod-moliya, 2008. - 61-70 b.
4. Matyakubov U.R. —Ekologik vaziyatni inobatga olib turizm samaradorligini oshirish yo_nalishlari va istiqbollari (Xorazm viloyati misolida)‖ mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2011. – 12 b.
7. O`zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo`mitasi ma‘lumotlari.
8. Xorazm viloyati statistika boshqarmasining ma‘lumotlari
9. O`zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat Qo`mitasi Xorazm viloyati boshqarmasining ma‘lumotlari.

Internet saytlari

1. <http://www.stat.uz>
2. <http://xorazmstat.uz>
3. <http://www.wttc.org>
4. <https://uzbekistan.travel.uz>
5. <https://visitkhorezm.uz>